

O'quvchilar uchun "Xotira maydoni" va "Qatag'on qurbonlari" muzeyiga sayohat hamda sport musobaqa tadbirlari tashkil etildi

SamDCHTI akademik litseyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldagi **"Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida" PQ-65-son qarori** ijrosini ta'minlash maqsadida akademik litsey o'quvchilarini Vatanga muhabbat, sadoqat, mardlik va fidoyilik ruhida tarbiyalash, shuningdek, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlashda qahramonlik ko'rsatib, xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo'lganlarni yod etish uchun **"Xotira maydoni"** va **"Qatag'on qurbonlari"** muzeyiga sayohat va Samarqand shahrida joylashgan akademik litseylar bilan hamkorlikda yuqori saviyada **sport musobaqa tadbirlari** ham tashkil etildi.











SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati